

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA GENDER IFODALOVCHI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xolmirzayeva Latofat

Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mentalitetimizning nodir bilimdoni bo‘lgan Tog‘ay Murod qissalarida qo‘llanilgan maqollarning gender xususiyatlari lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilgan. Qissalarda foydalanilgan maqollarning milliy-madaniy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, yozuvchining xalq maqollaridan mohirona foydalanishi, ular asosida individual maqollarni yaratish mahorati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *maqol, matal, gender, paremiologiya, lingvomadaniyatshunoslik.*

Kirish. Bugungi yangilanayotgan davr o‘zbek tilshunosligi uchun ham ma’lum talablarni qo‘ymoqda. Globallashtirilgan davrda tilni o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish, turli samarali usullar orqali tillar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash tilshunoslikning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Inson o‘z hayotini gender xususiyat bilan boshlaydi. Binobarin, chaqaloq dunyoga kelganda, u qiz bo‘lsa pushti rangli, o‘g‘il bo‘lsa ko‘k rangli kiyimlar va yo‘rgaklar bilan qarshi olinadi. Tug‘ruqxonaga chaqaloqni ko‘rgani kelganlar gender xususiyatni aniqlash uchun uning o‘g‘il yoki qiz ekanligini so‘rashadi. Biroq gender biologik jins yoki jinsiy xususiyat emas. Mazkur farq bizning biologik jins haqidagi qarashlarimizning gender xususiyatga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini tushunishda juda muhim sanaladi. (1)

Jamiyatda ayol yoki erkaklik o‘rniga ega bo‘lish sezilarli darajada madaniy tushunchalarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ayrim faoliyatlar ko‘proq erkaklarga yoki ko‘proq ayollarga xosligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, insonlarning ov qilishi yoki bichish-tikish bilan shug‘ullanishi, jang qilishi yoki she’r o‘qishi boshqalarning ular haqida bildirgan fikrlaridan o‘zgarishi mumkin. Kishilarning teleko‘rsatuvlar, teleseriallar, futbol o‘yinlari va h.k. tomosha qilishi ularning boshqalar

bilan genderlashgan kontekstlarda muloqotga kirishuviga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgacha o'zbek tilshunosligida tilning lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, badiiy asarning lingvomadaniy tahlillari hanuz dolzarb masalaligicha qolmoqda. Shu bois mentalitetimizning nodir bilimdoni bo'lgan Tog'ay Murod qissalarida gender leksika, xususan, maqollarni lingvomadaniy tahlilga tortish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillar, ya'ni milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrni asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo'lsa, albatta, maqolga murojaat qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollarda, jumladan, kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Ammo har qanday maqol va matal ham lingvomadaniy tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi.

Asosiy qism. Tilshunoslikning ayrim o'rinlarida maqol va idioma tushunchalari farqlanadi. Ma'nosi tarkibidagi lug'aviy birliklarning asl ma'nosiga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ko'chma ma'no beuvchi so'z yoki so'zlar bog'lanmasi idiomalardir. Idioma tuzilishiga ko'ra so'zdan ham, so'z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo'lishi mumkin. Ma'nosi tarkibidagi lug'aviy birliklarning asl ma'nosiga bog'liq bo'lmagan so'zlar – idiomalardir: suyug'oyoq ("Boisi, elda Munavvar suyug'oyoq ayol, degan gap oralab yurdi"). (2)

Individual holat haqida aytilgan gapning maqolga aylana borishi hodisasini "Oydinda yurgan odamlar" asarida qo'llangan "Qirqiga chidagan, qirq biriga ham chidaydi" maqolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu maqol asarda o'zbek xalqining go'zal urf-odatlaridan bo'lmish nikoh o'qish uchun kelindan rizolik so'ralishi, kelin esa ibo qilib, sukut saqlashi,

bundan vaqt cho‘zilib kuyov bolaning ko‘ngli g‘ashlanishi manzarasida Tog‘ay Murod tomonidan g‘oyat mahorat bilan o‘z o‘rnida qo‘llangan.

Tog‘ay Murod ”Ot kishnagan oqshom” qissasida xalq maqollaridan foydalanishning o‘ziga xos yo‘lini topgan. Ushbu maqolda mardlik ulug‘lanadi. Mard insonning mardligi alohida ta’kidlanadi. Bu maqol bilan sizning oshingizni mard kishi esa achinmaysiz, chunki mard ana shunday siylovga loyiq. ”Boshingni esa-da, mard esin!” degan jumla esa agar sizni o‘ldirsa ham mard odam o‘ldirsin. Birinchidan, *mard odam bir marta, nomard esa ming marta* o‘ldiradi, deyilmoqda. Shunday ekan, mard odamning qo‘lida halok bo‘lgan inson o‘z o‘limiga achinmaydi. Zero, mard insonning qo‘lida o‘lim topish ham sharafdir. Yozuvchi ushbu maqolni qo‘llash orqali erkak kishining mard, jasur bo‘lishi lozimligi haqidagi umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suradi.

Birodarlar, o‘zbek eli o‘r keladi, o‘zi o‘jar, zo‘r keladi! (3)

Tog‘ay Murod qo‘llagan ushbu maqolda o‘zbek millati, uning fe’l-atvori, chapaniligi, botirligi o‘zining ifodasini topgan. Ushbu obrazli ifodada ortiqcha so‘zlar yo‘q, har bir so‘z aniq, o‘z o‘rnida ishlatilgan, ”o‘r”, ”o‘jar”, ”zo‘r” so‘zlari o‘zaro qofiyalangan. ”Keladi” so‘zining takrorlanishi esa maqolning ohangdorligini ta’minlagan, o‘ziga xos ritm hosil qilgan. Qadimdan o‘zbek yigitlari alpomish kelbatligi, bir so‘zligi, mard va jasurligi bilan e’tirof etib kelingan. Ushbu maqol orqali ham erkaklik fazilatlariga xos jihatlar o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, maqollarda mehnatkash ommaning donoligi, milliy an’ana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqida fikri, bahsi, mehnati mujassamlangan. Shuning uchun ham maqollar uzoq umrli bo‘ladi. Maqollarda har bir tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar ma’lum darajada o‘z izini qoldirdi. Shuningdek, yangi-yangi maqollar yaratilib, so‘z san’ati xazinasini boyiyveradi.

Balki Tog‘ay Murodda folklor an’analariga bo‘lgan qiziqish u dehqon bo‘lib bepoyon dalalarda suvchilar bilan yonma-yon suv qo‘yganda, yilqiboqarlar va polvonlar davrasida, to‘ylarda bo‘lgan davrlarida tug‘ilgan bo‘lsa ajab emas. Shundanmi, chuqur va keng ma’noli, ibratomuz, tugal fikr anglatgan maqollar Tog‘ay Murod

asarlarining ich-ichiga singdirib yuborilgan. Maqollar asar qahramonlar nutqlarining ta'sirchanligini ta'minlash vazifasini o'tagan. Jumladan:

”Bir kalning hiylasi - qirq kishini charchatadi”.(4) Xalq ertaklarida kal ayyor va hiylagar odam sifatida tasvirlanadi. Tog‘ay Murod ”Ot kishnagan oqshom” qissasida Moskvadan vakil qilib yuborilgan odamni o'sha ayyor va dog‘uli kalga o‘xshatadi. Haqiqatdan ham, Moskvadan kelgan vakillar o'sha davrlarda ertaklardagi kalga o‘xshab hammani laqillatib ketishardi.

”Erkak odamning yig‘lagani – o‘lgani.” Maqollarda mardlik, erkak kishining oila ustuni ekanligi, uning or-nomusi haqida fikr yuritiladi. Lekin Tog‘ay Murod qissasida ishlatgan, ushbu maqolda tasvirlangan kal unday hamiyatli erkak emas, uni Moskvadan kelgan vakil amalidan olib, partiyadan o‘chirmoqchi bo‘lganda, amaldor ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi. Bundan achingan, uning erkak bo‘la turib yig‘lagan amaldorga nisbatan ”Erkak odamning yig‘lagani – o‘lgani” maqolini ishlatgan. Haqiqatan ham, erkak bo‘la turib yig‘lagan bunday erkakning boridan yo‘g‘i. Uning bu dunyoda ”Erkakman” deya bosh ko‘tarib yurganidan o‘lgani yaxshi. Yozuvchi ushbu maqolni qo‘llashi orqali asarning bosh qahramoni Ziyodulla kalning haqiqiy mard inson ekanligini yana bir bor kitobxonga ta’kidlash, undagi insoniy fazilatlarni ulug‘lashdan dalolatdir.

”O‘zing yaxshi – olam yaxshi, o‘zing yomon – olam yomon”.(5) Hikmatga yo‘g‘rilgan bu maqolda o'sha adib tasvirlayotgan kal ya'ni sobiq kattaning choyxonada yotvolib ”Haqiqat yo‘q, bu dunyoda haqiqat yo‘q”, deyishiga nisbatan unga qarata ”Agar sen yaxshi bo‘lganingda olam ham yaxshi bo‘lardi, o‘zing yomonliging uchun hozir ko‘zingga olam yomon ko‘rinyapti”, degan fikr ilgari surilyapti. Albatta, bunday odamlarning taqdiri xalq uchun armon bo‘lishi, ya'ni odamlar uni kulgi ostiga olishi tayin. ”Elga ermak, xalqqa shaloq”, maqoli xuddi ana shu maqsadda ishlatilgan. Boisi sobiq rahbar endi hammaga kulgu bo‘lyapti. Adib uning choy ichishini shunday tasvirlaydi: ”Choynagidan choyi oq emish. O‘zi qo‘yib, o‘zi ichar emish”.(6) Demak, ko‘rinib turibdiki, endi ermaktalab kishilar uning choyxonada o‘tirib, dog‘suv ichishini ko‘rib kulyapti. Endi sobiq rahbar o‘zi yolg‘iz. U bilan hech kim choyxo‘rlik qilmaydi. Ha, el nazaridan qolgan juda yomon.

Tog‘ay Murodning maqol qo‘llash san‘ati juda yuqori. Biz uning mahoratini, asar qiymatini oshirishda maqoldan o‘rinli foydalanganidan ham ko‘rishimiz mumkin.

«Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim» bo‘ldi. Bu maqol bilan qo‘shnilarning foydali tomonlari, yaxshi-yomon kunlarda kishiga hamdam, hamqadam va hamdard bo‘lishlari ko‘rsatiladi. Maqolda qo‘shniilik, do‘stlik, ittifoqlik, hamjihatlik ulug‘lanadi. Tog‘ay Murod ushbu maqol orqali xalqiizning qadim-qadimdan qo‘shni bo‘lib yashab kelganligini, qo‘shniilikni naqadar e‘zozlaganliklarini ko‘rsatmoqchi, bir-biriga ko‘maklashib yashaganliklarini ta‘kidlamogchi bo‘ladi. Bundan tashqari umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suradi.

”Yig‘ini o‘z uyi – o‘lan to‘shagidan tark etajagidan, hesh-aqrabolaridan olislab ketajagidan desak-da bo‘ladi”.(7) ”Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi ushbu maqol mazmuni ”Birovning uyida, yurtida yumshoq to‘shakda o‘tirganingdan ko‘ra, tap-taqir o‘lan to‘shakda o‘tirsang ham, o‘z uying yaxshi” demoqchi bo‘lganlar. Har kimning o‘z uy-joyi, o‘z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligi ta‘kidlanadi. Yuqoridagi maqol ham o‘z uyidan olislab ketayotgan, turmushga chiqib ketayotgan qizga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, maqolda turmushga uzatilayotgan qiz uchun o‘z uyi naqadar qadrli ekanligi haqida, o‘z uyidan uzoqlashish qiz uchun naqadar og‘irligi haqida gap boradi.

Birodarlar, kuyovni payg‘ambarlar-da siylagan! Ahay-ahay! rivoyatlarga ko‘ra Muhammad payg‘ambarimiz o‘z kuyovi Hazrati Alini siylagan ekan. Mazkur maqol shu asosda kelib chiqqan bo‘lib, uni kuyovni siylaganda yoki siylash zarurligini uqtirganda aytadilar. ”Kuyov keldi – xon keldi” degan maqol ham borki, bunda qaynota, qaynona, qaynog‘a, qayni, qaynisingil va umuman quda tarafdagilar kuyovni qanchalik hurmat qilishlari, u kelsa o‘tqazgani joy topolmay qolishlari, bamisoli xon kelgandek izzatu ehtirom qilishlari o‘z ifodasini topgan.

Xulosa. Tildagi madaniy belgilarni o‘rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvomadaniyatshunoslikka qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga, fanning nazariy –metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Lingvomadaniyatshunoslikda, boshqa

lingvomadaniy birlilar qatori, paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq qilinmoqda.

XX asr adabiyotida folklor an'analariga murojaat etish o'zbek adib va shoirlari ijodida nihoyatda kuchaydi. Buni Tog'ay Murod asarlari misolida ko'rish mumkin. Tog'ay Murod Abdulla Qodiriy, Hamza, Oybek, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va boshqa ustoz adib va shoirlarimizning an'analarini davom ettirib, folklordan foydalanishning o'ziga xos yo'llaridan bordi. Shuning uchun ham Tog'ay Murod asarlarida folklor syujetlari, qadimgi rivoyat va afsonalarining sehrli motivlaridan ko'ra qahramonlik eposining mahobatli ruhi, uning mubolag'ali tasvir usullari, badiiy tasvir vositalari ko'proq o'rin olganligi ko'zga tashlanadi. Biz buni adibning ayniqsa «Yulduzlar mangu yonadi», «Ot kishnagan oqshom» qissalar misolida ko'rib chiqdik. Yozuvchi maqol, xalq qo'shiqlari, alla, askiya, latifalarni juda yaxshi bilishi bilan alohida ajralib turadi. Tog'ay Murod o'z asarlari bilan xalq og'zaki ijodi namunalari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmasligini, ular ijodkor mahorati bilan bog'liq holda hamma vaqt zamonaviylik kasb etishini amalda isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010.
2. Маслова В. А. Лингвокультуроология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001.
3. Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 3. –Тошкент, 2013.
4. Саримсоқов Б. Фольклор ва ўзбек адабиёти муносабатларига доир изланишлар. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1976, 5-сон, 85-87 бетлар.
5. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 1994.
6. G.M.Ismailov. Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). - Polylinguality and transcultural practices, 2017. B. 85-92..

7. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: "BOOKMANY PRINT".

8. Jo'rayeva G.H. Tog'ay Murod qissalaridagi ayrim lingvokulteremalarning lingvomadaniy tahlili.// XX asr tilshunosligi:tahlil va talqin, -№ 4.–Navoiy, 2023.

9. S. Küçük, M. Saparniyazova, ÜÖ Demirci, N Jureyava. Özbek Türkçesi Terkibindeki Oğuz Lehçesi ve Onun Ayırt Edici Fonetik Hususiyetleri - BABUR Research, 2024. B. 287-294.

10. Абдужалилов, М. И. О. (2024). Лингвокультурологический подход к изучению языковых явлений. *Lingua*, 1.

11. Ismailov, G. Anthropocentrism in phraseological picture of world (on the example of uzbek, kazakh and karakalpak languages). *中国湖州* 2022 № 4 (13), 137.

12. Mirzaevich, G. I. (2026). Ethnic Stereotypes in the Phraseologisms of the Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages. *Asian Journal of Arts and Culture*, 26(1), e23-e23.

13. Mirzaevich, I. G. (2021). Idioethnic interpretation of Uzbek phraseology (on example of Uzbek, Kazakh and Karakalpak languages). *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(6), 80-87.

14. Rahmatov, M. (2025). QO 'SHMA FE'L KOMPONENTLARI INVERSIYASI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).

15. Xujaev, M. I. (2020). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5| Issue: 8| August 2020-Peer Reviewed Journal.

16. Xujaev, M. I. (2015). Некоторые особенности этических взглядов Axmet-Zaki Validova. *Credo new*, (2-2), 3.